

**PROSPER MERIMENING “MATEO FALCONE” ASARI
TARJIMA VA TAHLILI**

Geldiboyeva S.R.

O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti

Roman-german tillari tarjimashunosligi kafedrasida

2- bosqich (fransuz tili) yo‘nalishi talabasi

Ilmiy rahbar O‘zDJTU Tarjimonlik fakulteti o‘qituvchisi **Axmedov X.A.**

ABSTRACT

In this article, we have currently considered the most controversial issue of defense in terms of phraseology that are used in the field of translation studies as well as the combination of words along the path devoted to the translation problem.

Keywords: P. Merimeni, Fortunato, Chambre Bleue, Poudre, Voltigeur, Miltiqdori, Yollanma askar.

P. Merime 1803- yil 28- sentabrda o‘qimishli kimyogar va rassom Jan Francois Leonore Merimening o‘g‘li bo‘lgan. P. Merimeni Parijdagi huquqshunoslik kursini tugatgach u iyul monarxiyasi vazirlaridan biri graf D’Artu kotibi keyin esa Fransiyadagi tarixiy yodgorliklarning bosh inspektori etib tayinlangan. Parijda huquqshunoslik fakultetida o‘qigan paytida u Amper va Albert Stapfer bilan do‘stlashgan. Merime frankiyada birinchilardan bolib rus adabiyotini qadrlagan, va Pushkin va Gogol asarlarining asl nusxasini o‘qish uchun rus tilini o‘zlashtirgan. Shoir Pushkinning ashaddiy muxlisi bo‘lgan. Merimening 1828-1829 yillarda Jakeri va Famil Karvaxal drammalari, Charlz IX Chronique du temps tarixiy romoni va mateo Falcone qissasi nashr etilgan. Merime hayotligida nashr etilgan so‘ngi hikoyasi, “Lokis” bo‘lgan. Merime vafotidan so‘ng ular orasida “Derni Res” romonlari,

“Moviy xona” {Chambre Bleue} va uning maktublari nomli hikoyalari nashr etilgan. P. Merimening ko‘plab asarlari o‘zbek tiliga ham tarjima qilingan bolib Shularning ichida menga eng yoqqani “Mateo Falcone “ asari bo‘lib ushbu asar 1829 - yilda yozilgan bo‘lib u birinchi marta “Revue de Paris” jurnalining may sanasida chop etilgan. Ushbu romon Mateo Falcone Korsikaning Poro Vekki shahridagi chakalakzor chetida yashardi. Kunlarning birida u xotini bilan borib podasidan birini ko‘rish uchunga qaror qiladi. Fortunato uning yagona o‘g‘li edi merosxo‘ri edi. Janetto ismli qochoqni himoya qilish maqsadida pichan g‘arami ichiga yashirishini so‘raydi. Keyin esa Fortunato 5 frankga aldanadi. Biroz vaqt o‘tgach harbiylar Mateo Falconening oldiga kelib, Fortunatodan ular taqib qilayotgan qochoq qayerga ketganini so‘raydi. Munozaralardan so‘ng Fortunato o‘zi orzu qilgan chiroyli soat evaziga qochqin yashiringan joyni aytishga rozi bo‘ladi. Aynan o‘sha paytda Mateo Falcone keladi va qo‘lga olingan Janettoni ko‘radi, u Mateo va uning oilasini xiyonatda ayblaydi. Mateoning vijdoni har qanday boshqa korsikaliknikiga nisbatan pokroq edi., chunki u inson bolasiga miltiq o‘qtalغان emas. Shunday bo‘lsada u hushyor tortib zarur bo‘lib qolsa o‘zini matonat bilan himoya qilishga chog‘lanadi. Shuning uchun ham u o‘z pushti kamaridan bo‘lgan bolasidan ham g‘ururini ustun qo‘yadi va o‘z bolasining qotiliga aylanadi. Asarning mazmuni shulardan iborat. Mateo Falcone asarining tarjima va tahlilida turli xil muamollarga duch kelishimiz mumkin. Men sizlarga qisqacha tahlil ko‘rsatmoqchiman.

Cet homme était un bandit, qui étant parti de nuit pour aller chercher de la poudre à la ville, était tombé en route dans une embuscade de voltigeur corses. Après une vigoureuse defense, il était parvenu a faire sa retraite , vivement poursuivi et tiraillant de rocher en rocher. Mais il avait peu d’avance sur les soldats, et sa blessure le mettait hors d’ était de gagner le maquis avant d’être rejont.

Abdumurod Qo‘chiboyev tomonidan berilgan tarjima varianti aslida, “ U porox olib kelgani kechasi shaharga qaytayotib, korsikalik voltijerlar pistirmasiga duch kelib qolgan bandit edi. U jon jahti bilan otishib, qoya toshlarini panalab, quvib kelayotganlarini bir ammalab chalg‘otishga muvaffaq bo‘ldi. Biroq soldatlar yaqin

orada edi. U esa jarohati tufayli makiga yetib borolmadi”. deb tarjima qilingan ammo biz tarjimamizni yanada badiyroq sayqallash maqsadida

“Poudre” so‘zini “Miltiqdori” deb, “Voltigeur” so‘zini “Yollanma askar” deb oldik.

Biz ushbu jumlaning quyidagicha tarjima qildik.”U miltiqdori olib kelish uchun shaharga ketayotib, yollanma askarlar pistirmasiga duch kelib qolgan, chakkalakzorda yashirinib yurgan qochoqlardan biri edi. U jon- jahti bilan otishib, qoya toshlarining ortiga himoyalaniib, quvib kelayotgan askarlardan biroz qochib qutulgandek bo‘ldi. Afsuski, jarohati unga chakkalakzorga yetib olib yashirinishiga halal berardi”.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Prosper Mérimée (1803-1870) Nouvelles I Colomba
2. АБДУМУРОД КЎЧИБОЕВ БИЛВОСИТА ВА БЕВОСИТА ТАРЖИМА ТАЌЛИЛИ САМАРЉАНД-2006. Услужий лўлланма. СамДЧТИ нашриёти. СамарЉанд: 2006, 85 бет.